



SIYOSIY ISHTIROK

Baxronqulov Shoxjaon Baxodir O'g'li
O'zmu Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Siyosiy ishtirok omillarini tushunish va individni siyosatdagi rolini sharqlashda muhim ahamiyatga egaligi ko'rinadi.

Kalit so'zlar: Siyosiy jarayon, Siyosiy ishtirok, Manfaatli ishtirok, Bilvosita va Bevosita ishtirok, Siyosiy ishtirok funksiyalari.

KIRISH

Siyosiy ishtirok- siyosiy hokimiyatning har qanday mahaliy yoki umummilliy darajalarida kishilarning davlat siyosatiga ta'sir etish, davlat ishlarini boshqarish yoki siyosiy yetakchilarni saylash maqadlaridagi xatti-harakatlaridir. Siyosiy ishtirokda aholi davlat hokimiyati shakllantirishda va uni amalga oshirishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

Xar bir davlat jamiyatda o'z fuqarolarini siyosatga u yoki bu tarzda jalb etishi mumkin. Ya'ni Siyosiy ishtirok bu siyosiy subyektlarning "Maqsadli" xatti-harakatlaridir. Bunda maqsad "Davlat siyosati"ga tasir etish shakliga ko'ra, davlat ishlarini boshqarish shakliga ko'ra, siyosiy yetakchilarni saylash shakliga ko'ra, manfaatlarni "Artikulatsiyalash va Agrigatsiyalashda" namoyon bo'ladi. SHaxsni siyosiy jarayonga jalb etishning darajasi, xarakteri va sababi ularni ishtirok etishga undovchi omillardir. Siyosiy ishtirok quyidagi funksiyalarni bajaradi: 1) siyosiy ijtimoiylashuv; 2) ixtiloflarni xal etish va ulardan ogoxlantirish; 3) Byurokratiyaga qarshi kurashish va fuqarolarni siyosat va boshqaruvdan begonaligini tugatish; 4) Turli manfaatlar, talablar va istaklarni keltirish va ularni qondirish. Siyosiy jarayon- siyosiy fanning markaziy va o'ziga xos kategoriyalaridan biridir. Ayrim olimlar siyosiy jarayonni o'ziga xosligini siyosiy jarayon natijasi, ayrimlari esa subyektlarni o'z manfaatlarini va maqsadlarini amalga oshirish chog'idagi xulq- atvor jixatlaridan izlaydi. Ana shu xilma-xil yondashuvlar doirasida siyosiy jarayon o'zining eng muxim manbalari, xolatlarini, tarkibiy qismlarini namoyish etadi. Ayni vaqtda siyosiy jarayoning xilma-xil nazariy talqinlariga qramay, u subyektlarining niyatiga yoki partiyalar dasturlariga emas, turli ichki va tashqi omillar natijasida shakllarga real o'zaro ta'sirini aks ettiradi deb xisoblanadi.

Boshqacha qilib aytganda siyosiy jarayon idivitlar, guruxlar, xokimiyat institutlari o'zlaridagi barcha strategiyalar, maqsadlar va funksiyalarini amalga oshirish uchun bir-birlari va davalt bilan o'zro tasirga kirishadilar.

Siyosiy ishtirok siyosiy jarayonda 2 usulda.

a) manfaatlarini ifodalovchi

b) bevosita va bilvosita ishtirok etish usulida bo'ladi.

Siyosiy jarayonlarda manfaatlar to'qnashuvi eng muxim ahamiyatga ega. Manfaatlarini ifodalash usuli saylov, referendum, ijtimoiy siyosiy xarakatlar tarzida ro'y beradi. Bevosita



va bilvosita ishtirokni shaxs siyosiy jarayonda qaror qabul qilishda o'zi yoki vakil orqali to'liq ifoda etadi. Bu ishtirok siyosiy yetakchi yoki siyosiy elita tomonidan qabul qilingan qarorlarga ishtirok etishda namoyon bo'ladi. Bunda maqsad 1-davlat siyosatiga ta'sir etish shaklida, 2-davlat ishlarini boshqarish shaklida, 3-siyosiy yetakchilarni saylash shaklida, 4-manfaatlar artikulyatsiya va agrigatsiyasi shakllanishda bevosita ta'sir etishdir.

Siyosiy ishtirok shakllari va turlari xilma-xilligi asosida ko'rinib turibdiki, ular ko'lami, ijtimoiy tarqalish soxasiga ko'ra farqlanadi. Ya'ni indivit o'z manfaatlarini siyosiy vositalar bilan yoki umummilliy darajada, yo maxalliy muommolar doirasida, kichik ishlab chiqarish jamoasi, yo xududiy o'zini-o'zi boshqarish doirada ishtirokini nazarda tutadi. Siyosiy ishtirok jadalligi muxim ko'rsatgich hisoblanadi. Partiyalar, siyosiy xarakatlar, manfaat guruxlari va h.k larning faollari hisoblansa, boshqa tomonini esa loqaydlik, odamlarning siyosatdan begonalashuvi, ijtimoiy xayotning bu soxasiga to'liq befarqligini ko'rsatadi.

Axolining ko'pchiligi uchun asosiy va tajriba ko'rsatishicha, ma'qul ishtirok shakli-xokimiyatning vakolatli organlariga saylovidir. Bu saylov natijasida ijtimoiy qatlamlar o'z manfaatlarini ifoda etish shakli sifatida qaraladi. Bu jarayon esa axolining siyosiy jarayonlarga bo'lgan faolligini yanada oshirishga yordam beradi

XULOSA

Siyosiy ishtirok xalq manfaatlarini ifoda etish shakli bo'lib unda indivitlar o'zlari jarayonga bilvosita yoki bevosita ishtirok etishi orqali amalga oshiriladi. Siyosiy ishtirok orqali indivitning siyosatdagi rolini sharxlashda muxim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy jarayonlarni asosiy belgisi bu manfaatlar to'qnashuvidir. Bu esa shu jarayonning turlicha va uzoq etish mahsulini taminlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1- K.Mirzaaxmedov 9-maruzasi
- 2- M.Qirg'izboev, "Siyosatshunoslikka kirish" (O'quv qo'llanma)
- 3- V.P.Pugachev "Siyosatshunoslikka kirish" (O'quv qo'llanma)
- 4- A.I.Solovev "Siyosatshunoslikka kirish" (O'quv qo'llanma)